

9 NOVEMBER



**ISOC**  
INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC  
ONLINE  
CONFERENCES

INTERNATIONAL CONFERENCE IN

# TURKEY

**THEORY AND ANALYTICAL  
ASPECTS OF RECENT RESEARCH**

zenodo

OpenAIRE

doi digital  
object  
identifier

OPEN ACCESS

[info.interonconf@mail.ru](mailto:info.interonconf@mail.ru)

[www.interonconf.com](http://www.interonconf.com)



**TURKEY International scientific-online  
conference:  
"THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF  
RECENT RESEARCH"**

---

**Part 9,  
NOVEMBER 9<sup>th</sup>**

**COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS**

ISTANBUL 2022

<b>Abdullayeva Hulkar Mansurovna</b> JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT	66
<b>Кодирова М.Г</b> <b>Хайдарова М.Д</b> ИНТЕГРАЦИЯ УРОКОВ ТЕХНОЛОГИИ С МАТЕМАТИКИ	69
<b>Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna</b> O'QUV JARAYONIGA INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI	73
<b>Омонова Дилдора Негмуродовна</b> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ОБРАЗОВАНИИ РОДНОГО ЯЗЫКА	77
<b>Farmonova Sevara</b> <b>Odilova Muhabbat</b> <b>Qodirova Saodat Abduraximovna</b> "ZARBULMASAL" ASARIDAGI BOSH G'OYA	82
<b>Музаффарова Нигинабону</b> <b>Курбанова Шоира Нарзуллаевна</b> ИНТЕРАКТИВНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИХ ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ	86
<b>Kurbanova Shoira Narzullayevna</b> TA'LIM OLUVCHILARNING MUSTAQIL VA IJODIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH	91
<b>Умурова Зарина Собир кизи</b> <b>Ражабова Нодирабегим Комиловна</b> БЎЛАЖАК БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИ ТАДҚИҚОТЧИЛИК КЎНИКМАЛАРИНИ ТАДБИҒИ	95
<b>Kurbanaliyeva Dilafruz</b> <b>Yusupova Khabiba Isabekovna</b> <b>Sadulloeva Makhfuza Gaybulloevna</b> METHODS OF TEACHING LANGUAGE AND SPEECH IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS	103
<b>Sayfullayev G'ulom Mahmudovich</b> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O`QITISH VA TASHKIL ETISH	109
<b>Maxmudova Ruxsora Navro'z qizi</b> <b>Tilavova Matlab Muhammedovna</b> BOSHLANG'ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA TABIIY VA TURLI MATERIALLAR BILAN ISHLASH JARAYONLARI	118
<b>Davlatova Zarina Alisherovna</b> <b>Sadirova Mashhura Hamzayevna</b> <b>Tilavova Matlab Muhammedovna</b> BOSHLANG'ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA QOG'OZDAN AMALIY ISHLARNI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI	122
<b>Тилавова Матлаб Мухаммедовна</b> ОБУЧЕНИЕ ТЕХНОЛОГИИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ	127

## O'QUV JARAYONIGA INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI

**Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna**

*Buxoro davlat universiteti Pedagogik ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi*  
*e-pochta: [o.m.olloqova@buxdu.uz](mailto:o.m.olloqova@buxdu.uz)*

**Annotatsiya:** *Maqolada ta'lim tizimidagi islohotlarni samarali amalga oshirish shartlari, o'quvchilarda nutq muloqotchanlikning shakllanishida intensiv ta'lim texnologiyalarining ahamiyati haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *islohat, axborot kommunikatsion texnologiyalar, samaradorlik, ta'lim texnologiyalari, intensiv ta'lim.*

Ta'lim tizimini isloh qilish, asosan, 3 yo'nalishda amalga oshiriladi. Birinchi yo'nalishda ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot kommunikativ texnologiyalarni joriy qilish, ikkinchi yo'nalish yangi o'quv dasturlarini yaratish va amaliyotda qo'llash, uchinchi yo'nalish esa pedagoglarning malakasini uzluksiz oshirib borish bilan bog'liq. Har uchala yo'nalishda bir xilda tizimli ish olib borilsa ta'lim sifatini yuqori natijaga olib chiqish mumkin. Hozirgikunda yurtimizda har uchala yo'nalishda ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugun barcha sohalarda zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalari sur'ati tezlashib ketgan. Bundan 20 yil avval bu texnologiyalar faqatgina ma'lum doira vakillarida mavjud bo'lgan bo'lsa, bugun deyarli barcha sohani axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Xuddi shuningdek, ta'lim sohasini ham. Ta'lim maqsadlari muntazam o'zgarib boradi. Ta'lim sohasi oldida turgan eng muhim masalalardan biri ham – 21-asr talablariga mos kadrlar qilib tayyorlashdir.

Mamlakatimizda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va yangi Milliy o'quv dasturining qabul qilinishi sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki pedagogning bilim va salohiyati qanchalik kuchli bo'lmasin, u o'n yillab o'zgarmagan o'quv dasturlari va dars rejalari bilan qurollantirilsa, kutilgan samaraga erishilmaydi. Chunki o'quvchi darsda beriladigan nazariy bilimlarni o'zlashtirib uni hayotda qo'llay olmasa, bunda hech qanday samaradorlik bo'lmaydi. Buning uchun esa o'quvchilarga kelajakda haqiqatda kerak bo'ladigan malaka va ko'nikmalarni singdirish lozim. Ya'ni o'quvchilar mavjud bilim va ko'nikmalar orasidan o'zlari uchun kerakli bo'lganlarini tanlab olish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

Hozirgi kunda har bir mutaxassis ilm-fanning deyarli barcha (tabiiy, texnik va ijtimoiy-gumanitar) sohalarida bilimlarga ega bo'lishlari kerak. Ayniqsa, pedagog kadrlar. Ular dars jarayonida eng samarali texnologiyalarni qo'llay olsalar bo'lg'usi

mutaxassislarning yetuk bo'lishlarida juda muhim. Bunday zamonaviy texnologiyalarga intensive ta'lim texnologiyasini misol qilishimiz mumkin.

Intensiv ta'lim texnologiyalari, asosan, o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda jadal, tezkorlik bilan o'qitish talab qilinganda qo'llaniladi. Bunda qisqa muddat ichida katta hajmdagi axborotni yetkazib berish, o'quvchilarning bilim olish darajasini oshirish zarur vaqtlarda qo'llaniladi. Bugungi kunda boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim tizimini intensivlashtirish zamon talabidir, chunki jadal va qisqa muddatli ta'limning turli shakllari va dasturlariga bo'lgan ehtiyoj ortib, jadal rivojlanib bormoqda. Bu esa juda katta o'quv jarayonini o'rganish uchun qisqartirilgan vaqt sifatida intensivligini ta'minlashdir.

Intensiv tushunchasi bugungi kunda ko'plab sohalarda keng qo'llanilmoqda. Intensiv tushunchasi sodda va biror narsani yanada tezroq, yanada ko'proq hosil qilish ma'nosida tushuniladi. O'qitish jarayonida esa u samarasiz metodikalardan, eskirgan tajribalardan, eskicha boshqarish yondashuvidan voz kechib, uning o'rniga yangi, yanada samaraliroq bo'lgan vositalar jamlanmasidan foydalanish va joriy etishni anglatadi. Intensiv ta'lim tez vaqt ichida o'quvchilarda muloqot qobiliyatlarini o'rganishga imkon beradi.

Ta'lim jarayonini intensive ta'lim asosida tashkil etish, turli interfaol metod va vositalarni qo'llash, pedagogik jarayonni har tomonlama optimallashtirish bo'yicha Fallon Karin, M.A. Bondarenko, I.V.Shestitko, I.A.Turchenko, Y.S.Shilova, S.V.Marshina, Kitaygarodskiy va boshqa olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

O'quvchilarni intensiv ta'lim texnologiyasi asosida o'qitishda tildan foydalanishning amaliy natijalarini o'z ko'zlari bilan ko'radilar. Ma'lumki, yozish, o'qish, tinglash, gapirish real hayotda foydalanishning mustaqil turlari sifatida kamdan-kam uchraydi. Ular doimo bir-biri bilan chambarchas holda rivojlantiriladi.

O'qitishga intensiv ta'lim joriy qilinganda nutq faoliyatining istalgan turi didaktik o'yinlar, interfaol metodlar bilan birga olib borilishi mumkin.

Intensiv o'qitish bilimlarni o'zlashtirish va kompetensiyalarni shakllantirishning yuqori sur'atlarini ko'zda tutadi. Intensiv o'qitish sharoitlarida o'quv jarayonlarning jadalligi keskin ortadi, mashg'ulot davomida axborotlar to'g'ridan to'g'ri holda emas, balki turli-tuman aqliy va ijodiy fikrlarini bayon etish imkoniyati paydo bo'ladi.

Bir qancha tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra intensiv o'qitish deganda an'anaviy o'qitishga qaraganda nisbatan qisqa vaqtda o'tkaziladigan jadal xususiyatlardagi samarali tashkil etiladigan va eng yuqori unumdorlikni bera oladigan pedagogik jarayon hisoblanadi.

Barcha ta'lim texnologiyalari kabi intensiv ta'lim texnologiyalari ham bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular quyidagilar:

- o'quvchilarni dars jarayonida eng yuqori darajada faollashtiradi;
- o'quvchilardagi ichki imkoniyatlarini safarbar qiladi.

Intensive ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish o'quvchilarning rivojlanishi, ularning ijtimoiylashuvi va individuallashuvini rag'batlantirish, shuningdek, bilish va muloqot qilishni ham o'z ichiga oluvchi faol o'quv faoliyati jarayonida o'z-o'zini yuzaga chiqarishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish sifatida talqin qilinadi.

Demak, intensiv ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish o'qituvchi va o'quvchiga o'quv yuklamasini kamaytiradi, umumiy (o'quv, ijtimoiy, kommunikativ, shaxsiy) kompetensiyalarni egallaganlik butun umr mobaynida ta'lim olishga va yangi kasblarni o'zlashtirishga tayyorgarlikni oshiradi, hamkorlik qilish, nafaqat o'zining faoliyatini tashkil eta olish, o'zini va o'z hayotini boshqara olish, balki hamkorlikdagi faoliyatda ham muvaffaqiyatli bo'la olish mahoratini shakllantirishga xizmat qiladi.

Intensive jarayonni ta'minlash uchun o'quvchilar jamoasiga mos bo'lgan tegishli o'qitish usulini tanlash juda muhimdir. O'qitish usullari odatda maqsad va vazifalarni amalga oshirish, shuningdek, maqsadga erishish yo'llari va vositalarini aniqlash uchun ishlatilishi lozim bo'lgan mashg'ulotdagi yo'nalish tushuniladi. O'quvchilarda nutqni rivojlantirishda intensiv ta'lim texnologiyalarini qo'llash turlicha yondashuvlarga asoslanadi. Intensiv o'qitish texnologiyasini namoyon qilish uchun quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- o'quvchilarning individual ijodkorligiga tayanish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- shaxshga yo'naltirilgan o'qitish;
- o'quvchilarning ijodiy fikrlashini faollashtirish.

Shunday qilib, intensiv ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish deganda o'quv-bilish jarayonining samaradorligini oshirish uchun o'qitilayotgan o'quvchilarning mavjud ichki imkoniyatlari harakatga keltirish va tezlashtirish imkonini beradigan texnologik usullar tizimi tushuniladi. Intensiv ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish o'quvchilarning rivojlanishi, ularning ijtimoiylashuvi va individuallashuvini rag'batlantirish, shuningdek, bilish va muloqot qilishni ham o'z ichiga oladi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Pulatova D.R. Intensiv ta'lim texnologiyalari asosida nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalarini kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'lichicha falsafa doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2021. -95 bet.

2. OLLOQOVA, O. (2021). ONA TILI TA'LIMIDA INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 1(1).

3. Olloqova, O. (2022). УЧАЩИЕСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА ОРГАНИЗАЦИЯ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 8(8).

4. Olloqova, O. (2022). ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING ANAMIYATI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 22(22).
5. Olloqova, O. (2021). Эффективность Использования Информационно-Коммуникационных Технологий В Повышении Лингвистической Компетентности Учащихся На Уроках Родного Языка. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 1(1).
6. Omonova, D. N. Q. (2021). The Linguistic competence in language teaching based on Integrative Approach. In *World science: problems and innovations* (pp. 213-215).
7. Omonova, D. (2022). LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA MEDIA TA'LIM VOSITALARDAN FOYDALANISH. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 182-183.
8. Kodirova S. A. IDEOLOGICAL AND ARTISTIC FEATURES OF «ZARBULMASAL» // *Theoretical & Applied Science*. – 2020. – №. 10. – С. 318-320.
9. Курбанова, Ш. Н. (2020). Преподавание математики в начальных классах. In *European reseach: innovation in science, education and technology* (pp. 97-100).
10. Gaybulloevna S. M. Urgent Problems of the Quality of the Educational Environment // *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 152-154.
11. Xayrulloeva D. System of Creative Exercises and Tasks in Primary School Mother Tongue Textbooks // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*. – 2021. – Т. 7. – №. 7.
12. Yunusovna Y. S. METHODOLOGY OF FORMATION OF GRAPHIC SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS // *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 129-133.
13. YUSUFZODA S. BOSHLANG'ICH SINIF HUSNIXAT DARSLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH // *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*. – 2021. – Т. 8. – №. 8.
14. Jobirovich Y. M. EFFECTIVENESS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATIONAL SYSTEM // *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 124-128.
15. Jobirovich, Y. M. (2022). TOOLS OF USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY EDUCATIONAL COURSES. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 2(4), 119-123.
16. Sayfullayev, G. (2021). Methods of teaching younger students the ability to solve cognitive tasks of environmental protection. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 5(5).